



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

6(14)
2024





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№6(14) 2024

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX 7

Ochil Sirojov. Urush yillarida buxoro qishloq xo'jaligi (1941-1945-yillar)	7
Rizayev Baxtiyor Nazarboyevich. Sotsialistik qishloq xo'jaligi: nazariya va amaliyot	12
Yaxyoyeva Sojida Abdurahimovna. Genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning falsafiy-tarixiy ildizlari.....	17
Boltayev Bobir Baxtiyorovich. Zamonaviy muzeylar tashkil etishda buxoro tajribasi.....	23

13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI 28

Ibragimova Gulsanam Nematovna. Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yiladigan talablar	28
Qo'chqarova Shakarjon Azimboy qizi. Boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash jarayonining kompetensiyaviy rivojlanish jarayoni tavsifi	34
Sharifzoda Sardorbek O'razboy tabib o'g'li. Bo'lajak o'qituvchilarni gender yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashuvini shakllantirishning boshlang'ich darajasini aniqlash.....	39
Xudaynazarov Egambergan Madraximovich. Ta'lim tizimida elektron platformalarning ahamiyati va unda foydalanish metodologiyasi	44
Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi. Boshlang'ich sinflarda steam ta'limini joriy qilishda kompetensiyaviy yondashuv (Xorijiy tadqiqotlar misolida).....	49
Husenova Aziza Sharipovna. Blum taksonomiyasi va o'quvchilarning bilish imkoniyatlari....	54
Omonova Dildora Nekmurodovna. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini tanqidiy fikrlash ko'nikmasi orqali takomillashtirish	60
Marhabo Sayfulloyevna Ashurova. Buxoro jadidlari va yangi usul maktablarida o'qitish imkoniyatlari	64
Бехруз Хамидович Болтаев. Теоретическая значимость развития музыкальной культуры тюркских народов на основе качественного подхода	72
Jumayeva Feruza Sayidovna. Ta'lim sifatini ta'minlashda didaktik o'yinlarning o'rni	75
Kamolova Azimaxon Odiljon qizi. Kasbiy kasalliklarni oldini olishda va oliy ta'lim muassasasi talabalarining salomatlik madaniyatini shakllantirish	79
Зарипов Камол Яшинович. Методы использования искусственного интеллекта при глубинном изучении английского языка студентов и школьников.....	83
Sidikova Shohsanam Shoilhom qizi. Studying the effectiveness of digital tools in the development of language skills among non-philological education students.....	91
Rahmonov Kamol Jamolovich. Hamkorlik strategiyalariga asoslangan seminar darslarini loyihalashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ("1920-1924 yillarda BXS matbuoti" mavzusi misolida).....	96
Nurmatova Iroda Toxtasinovna. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy va teatr faoliyatida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish shartlari	101
Umarova Nilufar Xasanovna. Direktorlar boshqaruv muloqotida kommunikativ strategiyalar pedagogik muammo sifatida	105
Xabib Sodikov. Talabalarining korxonada ijtimoiy-amaliy tayyorgarligini shakllantirish usullari.....	111
Xodjiyev Azamat Baxodirovich. Innovatsion texnologiyalar asosida marketing nazariyasi asoslari fanini o'qitish metodikasini tashkil etish	118
Husenov Nodir Nuriddinovich. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ulotqirish texnikasini o'rgatish metodikasi	123
Abdug'afur Avliyoqulov. Aniq va tabiiy fanlarni integratsiyalashning konseptual asoslari....	128
Saburov Erkin Yulimbayevich. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi	134
Ismailov Tohirjon Xushnudbek o'g'li. Jadidchilikning ta'lim-tarbiya sohasidagi maqsad va prinsiplari	137

Rahmonov Kamol Jamolovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

**HAMKORLIK STRATEGIYALARIGA ASOSLANGAN SEMINAR DARSLARINI
LOYIHALASHTIRISH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR ("1920-1924 YILLARDA
BXSР MATBUOTI" MAVZUSI MISOLIDA)**

Mazkur maqolada "Turkiston matbuoti tarixining dolzarb muammolari" tanlov fanining "1920-1924 yillarda BXSР matbuoti" mavzusini o'qitishda tarix fani o'qituvchisiga hamkorlik strategiyalariga asoslangan seminar mashg'ulotini loyihalashtirish va tashkil etish bo'yicha innovasion metodlar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: innovasion muhit, hamkorlik strategiyalari, davriy matbuot organlari, Buxoro mahalliy matbuoti, grafik organayzerlar, "Konseptual jadval", "Venn texnologiyasi", "T-chizma", "Klaster".

**МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ОФОРМЛЕНИЮ СЕМИНАРСКИХ
ЗАНЯТИЙ НА ОСНОВЕ ПАРТНЕРСКИХ СТРАТЕГИЙ
(НА ПРИМЕРЕ ТЕМЫ "ПРЕССА БССР В 1920-1924 ГГ.")**

В данной статье учителю истории при преподавании темы «Печать БНСР в 1920-1924 гг.» факультативного предмета «Актуальные проблемы истории печати Туркестана» рекомендуются новаторские методы проектирования и организации мастер-класса на основе стратегии сотрудничества.

Ключевые слова: инновационная среда, стратегии сотрудничества, органы периодических изданий, местная печать Бухары, графические органайзеры, Концептуальная таблица, «Технология Венна», «Т-диаграмма», «Клстер».

**METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS FOR THE DESIGN OF
SEMINARS BASED ON PARTNER STRATEGIES
(ON THE EXAMPLE OF THE TOPIC "THE PRESS OF THE BSSR IN 1920-
1924")**

In this article, innovative methods for designing and organizing a workshop based on cooperation strategies are recommended to the history teacher in teaching the topic "Press of the VSR in 1920-1924" of the elective subject "Current problems of the history of the press of Turkestan".

Key words: innovative environment, cooperation strategies, organs of periodical publication, local print of Bukhara, graphic organizers, Conceptual table, «Wenn technology», «T-diagram», «Cluster».

Kirish. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi har bir o'qituvchi (lektor, edvayzer) dars mashg'ulotlarida o'z metodik tayyorgarligini takomillashtirish borishi bugungi kunning eng zarur va dolzarb jarayonlardan biri hisoblanadi. Bu borada tarix o'qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligi, ta'lim amaliyoti variativligi, bugungi innovasion muhitda texnika vositalaridan foydalanish, kompleks rivojlanish, multimedia tasvirli ma'lumotlarni qo'llash, seminar jarayonida hamkorlik strategiyalaridan foydalanishlari globallashtirish sharoitida tarix fani o'qituvchisining metodik jihatdan rivojining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi tarix fani o'qituvchisi har bir dars mashg'ulotlar (ma'ruza, seminar, aralash dars)ni

zamonaviy innovasion ta'lim texnologiyalar asosida ta'limiy, tarbiyaviy hamda keng qamrovli tashkil etishga mas'ul hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim beruvchi sifatida faqat o'quv materiallarini taqdim etish bilangina cheklanmasdan ta'lim oluvchi shaxsini ijtimoiylashuv va o'zini-o'zi namoyon qilish hamda madaniy muhit bilan muloqotga tez kirisha olishga o'rgatishi kerak. Natijada ta'lim oluvchi shaxs tarixiy ma'lumotlar orqali o'zining ijtimoiy, kasbiy, shaxsiy muammolarini osongina yechishga qodir bo'lishi lozim.

Mazkur maqolada yuqorida qayd etilgan barcha pedagogik va metodik omillarni inobatga olib, seminar mashg'ulotlari samaradorligini yanada oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan tarix fani o'qituvchisiga qo'shimcha materiallardan hamda hamkorlik strategiyalaridan qanday foydalanish usullari bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Asosiy qism. Buxoro davlat universiteti o'quv-metodik kengashi qarori bilan har yili yangidan tasdiqlanadigan "Turkiston matbuoti tarixining dolzarb muammolari" tanlov fani [1] o'quv dasturida "BXSR matbuoti" (4-modul) mavzusi o'tiladi. Mazkur fan va tegishli mavzu bo'yicha o'quv qo'llanma, monografiya va ilmiy maqolalardan [2] darsni loyihalashtirish maqsadida unumli foydalanish imkoniyati keng, seminar samaradorligi uchun yetarli ma'lumotlar ham mavjud.

Yuqorida qayd etilgan imkoniyatlardan foydalangan holda seminar mashg'ulotini yanada samaradorligi oshirishni o'z oldiga maqsad qilib olgan o'qituvchiga dars jarayonini uch bosqichga ajratib loyilastirilishiga tavsiya beriladi.

Darsning birinchi bosqichida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari qayd etilgach, ma'ruzada berilgan nazariy ma'lumotlar bir qadar takrorlab olinadi.

Mashg'ulotning ikkinchi bosqichi uchun o'qituvchi hamkorlik strategiyalarning eng ommaviy texnologiyalari hisoblangan "Konseptual jadval", "Venn texnologiyasi", "T-chizma", "Klaster" kabi grafik organayzerlar orqali o'quv mashg'ulotini loyihalashtirishga kirishadi. Mazkur chizmalar bir necha nusxada ko'paytiriladi. Namuna nusxasida esa o'qituvchi tomonidan topshiriqlar qayd etiladi.


"Konseptual jadval" dasturi orqali "BXSR matbuoti" mavzusidagi muammoli voqeliklarning sabab va omillari, uning yechimi, tegishli yakuniy xulosalar asosida amalga oshiriladi. "Venn texnologiyasi" asosidagi qiyoslash uslubi orqali 1920-1924 yillarda chop etib turilgan 2 ta matbuot organlariga [3] xos bo'lgan umumiy belgilar tahlil etilishi, "T-chizma" usuli bilan tarixiy shaxslardan birining faoliyatidagi ijobiy yoki salbiy tomonlari izohlanishi, "Klaster" usuli asosida mavzuga oid tushunchalar kengroq mulohaza qilinishi rejalashtiriladi.

Topshiriqlarni talabalar yanada samarali bajarishlarini ko'zlab, ularni 4 guruhga ajratilishi, yuqoridagi vazifalar tushuntirilishi va har bir guruhga alohida topshiriq varaqalari tarqatilishi mumkin.

1-guruh uchun topshiriq: "Konseptual jadval" orqali muammoli voqeliklarning sabab va omillari, uning yechimi xulosa orqali izohlanishi kerak.

Muammoning mazmuni	Sabab va omillari	Muammoning yechimi	Xulosa
1. Qanday omillarga ko'ra, BXSR hukumati o'zining faoliyati yillarida yutuq va muammolarga duch keldi?			

2-guruh uchun topshiriq: talabalarga "Klaster" dasturi orqali o'rganilayotgan mavzudagi "Matbuotning targ'ibotchilik faoliyati" tushunchasi bo'yicha ma'lumotlarni qayd qilish vazifasi beriladi.




3-guruh uchun topshiriq: talabalar “T - chizma” orqali o‘rganilayotgan mavzuga tegishli tarixiy shaxslardan biri Fayzulla Xo‘jayev faoliyatiga oid jihatlarni tahlil etadilar.

Fayzulla Xo‘jayev qanday davlat arbobi bo‘lgan?

+	-
+	-
+	-

4-guruh uchun topshiriq: talabalar “Venn diagrammasi” orqali BXSR matbuoti organlari – “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalariga xos umumiy belgilarni qiyosiy tahlil qiladilar.

1)* “Buxoro axbori” gazetasi 2)* “Ozod Buxoro” gazetasi



A)*

Har bir guruh topshiriqni bajarib, varaqalarni o‘qituvchiga taqdim etadi. Fikrlar muhokama qilinadi, o‘qituvchi tomonidan xulosalanadi, seminar mashg‘ulotining ikkinchi bosqichi yakunlanadi.

O‘qituvchi mashg‘ulotning uchinchi bosqichini didaktik uyin uslublaridan birini tanlab loyihalashtiradi. Bunda “Xotira xaritasi” uslubidan foydalanish yaxshi samara beradi.

Uslubning mazmuni va amalga oshirish shartlari: talabalar uch qatarga bo‘linishadi hamda har bir qator bitta guruh hisoblanadi. Birinchi qatarga “Buxoro xalq sovet respublikasi”, ikkinchi qatarga bu davrdagi “Xorazm xalq sovet respublikasi”, uchinchi qatarga esa “Turkiston avtonom sovet respublikasi” bosh mavzu sifatida beriladi. Har bir guruhdagi o‘quvchilar 5 daqiqa davomida mustaqil tarzda o‘quv daftarlariga o‘z guruhlariga berilgan mavzu yuzasidan imkon qadar ko‘proq ma‘lumot yozishga harakat qiladilar. Berilgan besh daqiqalik fursat nihoyasiga yetgach, talabalar yozishni to‘xtatadilar hamda birinchi guruhdagi o‘quvchilar ketma-ketlik asosida o‘zlariga berilgan mavzu bo‘yicha bittadan ma‘lumot ayta boshlaydilar. Qolgan guruhlar esa aytilayotgan ma‘lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini kuzatib boradilar. Bir marotaba aytilgan

ma'lumotning takror aytilishiga yo'l qo'yilmaydi. Agar biror talaba yangi ma'lumot aytolmay qolsa, o'sha o'rnida tik turgan holda qoladi. Birinchi guruh ma'lumotlarni aytib bo'lgach, navbat ikkinchi va uchinchi guruhlariga beriladi. Barcha guruhlardagi talabalar ma'lumotlarni aytib bo'lishgach, o'qituvchi tik holda turgan talabalarga yuzlanadi hamda guruhleri g'olib bo'lishi uchun yana bir imkoniyat berilishini aytadi. Bunda birinchi qatordagi tik holda qolgan o'quvchi ikkinchi va uchinchi qatordagi tengdoshlari aytgan beshta ma'lumotni ayta olsa, o'z o'rniga o'tiradi. Aks holda yana tik holda qoladi. Ikkinchi va uchinchi guruhlardagi talabalar ham o'z guruhlaridan boshqa guruhlardagi talabalar aytgan besh ma'lumotni xotiralarda saqlab qola olgan bo'lishsa, o'z joylarini egallashadi. O'yin yakunida qaysi guruh yoki guruhlarda tik turgan talabalar bo'lmasa, o'sha gurux yoki guruhlar g'olib hisoblanishadi. Faol qatnashgan talabalar o'qituvchi tomonidan rag'bat kartochkalari bilan baholanadi.

Yuqoridagi tavsiyalar orqali noan'anaviy darslarni loyihalashtirish va tashkil etishning tahliliy hususiyati shundaki, birinchidan, o'qituvchining innovasion faoliyati, kasbiy kompetentligi va metodik tayyorgarligi takomillashib boradi, ikkinchidan, o'qituvchi ilm-fan va texnologiya sohasida yuz berayotgan intensiv o'zgarishlarni o'z mashg'ulotiga joriylashtiradi, innovasiyalarni o'tiladigan har bir seminar jarayoniga olib kiradi, tarixni bahs, munozara asosida o'rganish orqali komil insonni tarbiyalash quroliga aylantira oladi, natijada tarixiy xotirani shakllantirish asnosida qat'iyatli, mustahkam irodali, e'tiqodida sobitqadam turadigan shaxslarni tarbiyalashga erishadi.

Mazkur mavzuning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o'quvchilarga "BXSR matbuoti" mavzusi yuzasidan bilim va ko'nikmalar hosil qilish bilan birga, ularga yangi bilimlar beriladi, ilmiy tushuncha va tasavvurlari kengaytiriladi. Mazkur mavzuni o'qitish orqali talabalarni tinchlik va uning qadr-qimmatini teran anglash, har qanday yot unsur va g'oyalarga qarshi turish kabi tarbiyaviy metodlarni qo'llash nazarda tutiladi. Bugungi avlodda mafkuraviy immunitet, qat'iy iroda va kelajakka ishonch ruhini tarbiyalash maqsadi ko'zlanganligi ham mavzuning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Globalashuv sharoitida tarix fani o'qituvchilariga qo'yilgan zamonaviy talablarning eng muhimi – bu dars jarayonlarini ta'lim-tarbiya birligi asosida olib borishdir.

Tarix ta'limi bu raqam va dalillarni sanash, ma'lumotlarni yozdirish, faktlarni yodlatishdan iborat emas. Har bir tarix fani o'qituvchisini dars mashg'ulotining asosiy maqsadi tarixiy voqealik yoki shaxsning faoliyatiga tayanib, talabalar ongiga tarbiyaviy elementlarni singdirish bo'lmog'i kerak [4].

Masalan, BXSR hududlarida islohotlar uchun kurash voqealarini bayon etish bosqichida talabalar orasida halol raqobat muhitini vujudga keltirish orqali talabalarining barchasiga ta'lim-tarbiya olish uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratilganligini tushuntirish, tenglik va bag'rikenglik ko'nikmasini yanada rivojlantirish (Fayzulla Xo'jayev faoliyati misolida);

BXSR hududlarida qizil armiyaga qarshi kurash voqealarini bayon etish bosqichida talabalarni Vatan sarhadlarini himoya qilish yo'lida sobit qadam tashlovchi fuqarolar bo'lib yetishishlari, jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy jabhalarida faol ishtirok etishlari uchun yo'naltirish kabi vazifalarni bajarish asosida talabalar ongiga tarbiyaviy elementlarni singdirish mashg'ulotning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. BXSR matbuoti mavzusidagi seminar mashg'ulotini samarali loyihalashtirish va uni tashkil etish uchun mahalliy matbuot materiallaridan foydalanish, grafik organayzerlarni va didaktik o'yinlarni joriy qilishning amaliy ahamiyati bo'yicha quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, BXSR matbuotini o'rganishga qaratilgan qo'shimcha manbalar ko'p, bularga nafaqat ilmiy monografiyalar, balki badiiy adabiyoti durdonalari ham kiradi, talabaga mazkur kitoblarni mustaqil o'qish uchun tavsiya berilishi mumkin. Biroq ulardan tanqidiy va ijodiy tahlil asosida foydalanishni talabalarga o'qituvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar taqdim etilishi lozim.

Ikkinchidan, "BXSR matbuoti" mavzusidagi seminar mashg'ulotida qo'llanilgan interfaol dasturlarni talabalar istiqbolda o'zlarining pedagogik faoliyatida qo'llay olish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Uchinchidan, mazkur mavzuni yanada yangicha texnologiyalar bilan o'tish hamda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari keng, ularni dars jarayoniga olib kirish o'qituvchidan ijodkorlik va pedagogik mahorat talab qiladi.

Darsni loyihalashtirish uchun tavsiya etilayotgan dasturlar bo'yicha qo'yidagicha taklif va mulohazalar bildirish o'rinlidir:

1. "Turkiston matbuoti tarixining dolzarb muammolari" tanlov fanining barcha mavzulari yuzasidan o'quv namunaviy dars ishlanmasini chop etib, ijodkor tarix fani o'qituvchilari orasida targ'ib qilish va bu orqali ularning fikr - mulohazalarini olish;

2. Mazkur mavzu asosi va innovasion ta'lim metodologiyasidan kelib chiqib, tarix yo'nalishi o'quv rejasidagi boshqa fanlarning ham seminar va mustaqil ta'lim ishlanmalarini yangicha yondashuvlar asosida yaratish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Buxoro davlat universiteti o'quv-metodik kengashi qarori bilan 2010-2024 yillar davomida tarix yo'nalishi yuqori kurs talabalariga "Turkiston matbuoti tarixining dolzarb muammolari" deb nomlangan tanlov fani o'tilmoqda.

2. Raxmonov K. Turkistonda matbuot tarixining dolzarb muammolari. O'quv qo'llanma. "MUHAMMAD POLIGRAF" nashriyoti. Buxoro. 2022. 130 bet; shu muallif. BUXORO XALQ SHO'ROLAR JUMHURIYATI: milliy matbuot talqinida. BUXORO MATBUOTI FIDOIYLARI. Monografiya. "MUHAMMAD POLIGRAF" nashriyoti. Buxoro. 2022. -177 bet; shu muallif. BUXORO XALQ SHO'ROLAR JUMHURIYATI: milliy matbuot talqinida. IQTISODIYOT. Monografiya. "FAN ZIYOSI". Buxoro . 2023. -112 bet; shu muallif. BUXORO XALQ SHO'ROLAR JUMHURIYATI: milliy matbuot talqinida. IJTIMOIIY AHVOL. Monografiya. "FAN ZIYOSI". Buxoro . 2024. -124 bet; shu muallif. "Ozod Buxoro" gazetasida milliy-hududiy chegaralanish masalasining yoritilishi. BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI. 2023. № 11. –B. 317-321- betlar.

3. "Buxoro axbori" gazetasi BXS Markaziy Ijroiya Qo'mitasi matbuot organi bo'lib, 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yil oktyabrgacha chop etilgan. Gazeta o'zbek tilida, isloh qilingan arab imlosida, sarg'ish rangli o'rtacha sifatdagi qog'ozda, haftada 1-2 marta, 1500-2000 nusxada chiqarilgan. 1923 yil 16 oktyabrdan "Ozod Buxoro" nomida gazeta nashr qilina boshlangan. Bu gazeta 1930 yil oktyabr oyigacha chiqib turgan. Gazetalarning to'liq taxlamlari bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (O'zbekiston MDA) va Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati markaziy kutubxonasida saqlanmoqda. Bu haqda qarang: Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. Monografiya. -Toshkent, "ABU MATBUOT - KONSALT", 2012 y. 175 bet.

4. Raxmonov K. Tarix fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. O'quv qo'llanma. . "FAN ZIYOSI". Buxoro . 2024. -130 bet.